

UMUMMILLIY «YASHIL MAKON» LOYIHASI ASOSIDA TAXTAKO'PIR  
TUMANIDA BARPO ETILGAN YASHIL HUDUDLAR

Atamuratov Muxammed Muratbay uli

Ilmiy rahbar: Baltaniyazov Jaqsibay Sarsenbaevich, q.x.f.f.d.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus shahri

**Annotatsiya:** Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakupir tumani, tuproq-iqlim sharoitlari keskin kontinental bo'lgan va yangi tashkil etilgan hududda «Yashil makon» loyihasini amalga oshirish natijalari keltirilgan.

**Ka'lit so'zlar:** Taxtakupir tumani, umummilliy loyiha «Yashil makon», sakovul, yulg'un, ko'kalamzorlashtirish, agrotexnika.

**Аннотация:** В статье приведены результаты реализации проекта «Яшил макон» в Тахтакупырском районе Республики Каракалпакстан, где почвенно-климатические условия резко континентальны и территория является недавно организованной.

**Ключевые слова:** Тахтакупырский район, общенациональный проект «Яшил макон», саковул, юлгун, озеленение, агротехника.

**Abstract:** The article presents the results of the implementation of the «Yashil Makon» project in the Taxtakupyr district of the Republic of Karakalpakstan, where the soil and climatic conditions are sharply continental and the territory is newly organized.

**Keywords:** Taxtakupir district, «Yashil Makon» nationwide project, Haloxylon, Tamarix, greening, agrotechnics.

Butun dunyoda iqlim o'zgarishi sharoitlarida inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida, atrof-muhitda sezilarli o'zgarishlar kechmoqda. Iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar, quruqlikning barcha kengliklarida sezilmokda. Oqibatda tabiiy o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, sahrolanishlar va botqoqliklar vujudga kelmoqda, atmosfera, litosfera va suv ifloslanmoqda [1, 5].

1965-yilda tashkil etilgan Taxtakupir tumani iqlim sharoiti keskin kontinental, kuchli shamol ta'sirida qum, duz va chang bo'ronlari inson salomatligi, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, suv va havo sifatiga sezilarli va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga qarshi kurashish maqsadida 2021-yil noyabr oyida O'zbekiston hukumati yashil shaharlar va shaharchalarga «Yashil makon» tashabbusini boshladi. Ushbu umummilliy ko'kalamzorlashtirish tashabbusi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekiston» milliy taraqqiyot strategiyasiga qo'shilgan bo'lib, har yili 200 million tup daraxt ekish orqali yashil maydonlarni kengaytirish va shu orqali 2030-yilga borib ko'kalamzorlashtirish maydonlarini hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu hukumatning «Yashil makon» tashabbusini qo'llab-quvvatlash va yuqorida aytib o'tilgan muammolar va xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining



evropa iqtisodiy komissiyasi (BMT eIK) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (BMT QOKB) birgalikda O'zbekiston Respublikasining «Yashil makon» tashabbusini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun bosh rejalashtirish va innovatsion moliyaviy echimlar bo'yicha yangi loyihani ishga tushirdi [2, 4].

Ishimizning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakupir tumaning ko'chma qumli va og'ir tuproq-iqlim sharoitida yashil hudud yaratish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Ishimizning ob'ekti sifatida Taxtakupir tumani qumli, sho'rxok tuproqli sharoitda joylashgan «Beltao» nomli OFI hududidagi maydonda barpo etilayotgan yashil hudud bo'lib, unda infratuzilmani sho'r tuproq va changli qumlar to'lishidan himoya qilish maqsadida 8,2 gektar maydonda yashil belbog' barpo etish va 45,4 gektar maydonda qumni mustahkamlash uchun yulg'un va saksovul ko'chatlari ekildi.

O'rmon xo'jaligida qo'llaniladigan uslublar bo'yicha o'rmon xo'jaligi ekinlarining holati o'rganilib, ekilgan o'rmon xo'jaligi ekinlarining o'sishi, yashovchanligi, saqlanishi hamda o'sish-rivojlanish sharoitlari o'rganildi.

Taxtakupir tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy qismida joylashgan bo'lib tuproq sharoiti sho'r, ba'zi erlari ko'chli sho'rlangan. Sizot suvi sathi 182-240 sm tashkil qiladi. Tumanda daraxt-buta turlari soni sheklangan. Asosan psammofit o'simliklar o'sadi. Hududning ochiq tuproqli erlari salkam sho'rlangan, tuzlar tuproq betida shakllangan. So'ngi yillarda barpo etilayotgan, turizm maskaniga aylangan Qoratereng ko'lining xushmanzara sohilida «Qorateren» etnoturizm majmuasi dashtli tog'lar bilan o'ralgan.

Iqlim sharoiti keskin kontinental bo'lib, yillik yog'in miqdori 170-200 mm ni tashkil etadi. Yillik yog'inlarning asosiy miqdori 3-5%ni kuz mavsumida 44%ni qish mavsumida, 50%ni esa mart va aprelda yog'adi. Yoz va kuzda deyarli yog'ingarchilik bo'lmaydi. Havoning namligi juda past, bug'lanish miqdori esa juda yuqori. O'rtacha yillik havo harorati +16,2-18,0°C, o'rtacha kunlik harorat +30-35°C, maksimal harorat +41,0-46,9°C ni tashkil etadi. Qishda eng past harorat -12°C ga etadi. Yoz oylarida havo qurg'oqchiligi 45-50 kun davom etadi, bu vaqtda kuchli quruq shamollar kuzatiladi. Umumiy foydali harorat +2704 -3056°C [7, 8, 11, 12].

Bu hududlarda ko'chma qumlarni mustahkamlash uchun himoyalovchi «Yashil belbog'» larni yaratish zarur. Buning uchun yo'l yoqalariga saksovul va yulg'in o'simlik turlari tanlandi. Bunda dastlab dekabr oyining oxirida 60 gektar maydonda yakka korpusli plug bilan egatlar har 4 metr chuqurlikda, shamolga perpendikulyar ravishda 30-35 sm chuqurlikda surildi va bir yillik saksovul ko'chatlari egat tubi bo'ylab 4x1 metr sxemada, 1 gektar maydonga 2500 dona ko'chat ekish me'yorida zich chuqurlikda ekildi, bir yo'la urug'larni sayoz chuqurlikda joylashtirish maqsadida 5-6 kg/ga me'yorda qora saksovul urug'lari sepildi.

Ekish materialining yuqori darajada yashovchanligi, yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida ko'chatlarning ildizlari gumus, tuproq va gidrogelning suv bilan aralashmasidan tayyorlangan «likyor»ga botirildi. Zich ekish sxemasini tanlash bu



erda sharoitning og'irroq ekanligi, yozda yuqori qurg'oqchilik va quruq havo bilan tavsiflanganligi va o'simliklarning nobud bo'lish ehtimoli yuqoriligi bilan izohlanadi.

25 gektar maydonga ekishning ikkinchi bosqichi 2023 yil 10-13 fevral' kunlari anomal sovuq ob-havodan so'ng xuddi shu texnologiyada boshlandi. Ekish materiallari Mo'ynoq tumanidan keltirilgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti professor-o'qituvchilar va talabalar boshchiligida ham turli texnologiyalardan foydalangan holda turli variantlarda saksovulning tajriba ko'chatlari alohida ekilib, kuzatuvlar olib borildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayumov A., Boltaniyozov J. S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 09. – С. 170-174.

2. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2017. – С. 820-821.

3. Baltaniyazov J., Madraimov R. OROL DENGIZI QURIGAN TUBIDA YASHIL QOPLAMALARNI PARVARISHLASH AGROTEKNIKASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 156-158.

4. Қайимов А. Қ., Ҳамроев Х. Ф., Балтаниязов Ж. С. Қорақалпоғистон республикаси шароитида кўкаламзорлаштириш учун танланган япроқбаргли дарaxт турларининг ўсиш кўрсаткичлари //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 208-212.

5. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Growing and cutting of dolls pharmacy //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 607-608.

6. Baltaniyazov J., Madraimov R. JASÍL QAPLAMA PAYDA ETIWDE SEKSEWIL ÓSIMLIGINÍŇ ÁHMİYETI HÁM KÓBEYTIW USÍLLARÍ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10 Part 3. – С. 133-136.

7. Sherniyazov K., Atamuratova K., Baltaniyazov J. Types of vegetative propagation of ornamental tree-shrub plants in landscaping //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 1068-1070.

8. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Growing and developing of maple (*Acer*) tree in Karakalpakistan //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 609-611.

9. Kamalova N. B., Baltaniyazov J. S. ATROF-MUHITNI VA AVTOMOBIL YO'L BO'YLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH USULLARI BILAN HIMOYA QILISH //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 27. – С. 85-88.



10. Kamalova N. B., Baltaniyazov J. S. NUKUS SHAHRI AVTOMOBIL YO'L BO'YLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH UCHUN DARAXT-BUTA TURLARINI TANLASH //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 27. – С. 81-84.

11. Балтаниязов Ж. С. ҚОРАҚАЛПОФИСТОННИНГ ШАҲАР ВА ТУМАН МАРКАЗЛАРИНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШ ВА ҲИМОЯ ДАРАХТЗОРЛАРИ БАРПО ЭТИШ ҲОЛАТИ //МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2020. – С. 452-456.

12. Baltanyazov J. S., Khojanazarova A. J. REGISTRATION, AND STORAGE DIGGING PLANTING MATERIAL //АГРОЛЕСОМЕЛИОРАЦИЯ И ЗАЩИТНОЕ ЛЕСОРАЗВЕДЕНИЕ. – 2016. – С. 993.